

METABOLIK SINDROMLI O'SMIRLARDA OG'IZ BO'SHLIG'INING KLINIK HOLATI (KARIYES, PARODONT)

BEKNAZAROV BOBIRJON BAXODIR O'G'LI

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya. Tadqiqotning maqsadi metabolik sindromli o'smirlarda og'iz bo'shlig'i to'qimalarining klinik holatini, xususan kariyes va parodont ko'rsatkichlarini baholashdan iborat. 92 nafar o'smirda antropometrik va metabolik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda KPU, Green–Vermillion, PMA hamda Fuchs indeksleri, emal elektr o'tkazuvchanligi, ortopantomografik va densitometrik tekshiruvlar o'tkazildi. O'smirlarning 88 foizida parodont to'qimalari zararlanishi, kariyes faolligining ortishi va og'iz gigienasi ko'rsatkichlarining yomonlashishi aniqlandi. Natijalar metabolik sindromli o'smirlarni stomatologik xavf guruhi sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: metabolik sindrom, o'smirlar, kariyes, parodont, og'iz gigienasi, KPU indeksi, PMA indeksi, Fuchs indeksi.

Kirish. Metabolik sindrom bolalar va o'smirlar orasida keng tarqalayotgan tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib, u og'iz bo'shlig'i kasalliklari rivojlanishining muhim xavf omili hisoblanadi. Insulinorezistentlik, giperglikemiya va dislipidemiya fonida og'iz bo'shlig'i to'qimalarida mikrotsirkulyatsiya buzilishi va yallig'lanish reaksiyalari kuchayadi. Adabiyotlarda asosan kattalar populyatsiyasidan olingan ma'lumotlar ustunlik qiladi, o'smirlik davriga xos kariyes va parodont holatidagi o'zgarishlar yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli metabolik sindromli o'smirlarda og'iz bo'shlig'ining klinik holatini kompleks baholash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Material va metodlar. Tadqiqotga 12–18 yosh oralig'idagi 92 nafar o'smir (o'g'il va qiz bolalar; o'rtacha yosh $14,8 \pm 1,6$) jalb etildi. Metabolik sindrom tashxisi xalqaro klinik va laborator mezonlar asosida tasdiqlandi. Antropometrik ko'rsatkichlar (tana massasi indeksi, bel aylanasi), arterial bosim, qondagi glyukoza va lipidlar profili aniqlandi. Og'iz bo'shlig'i holatini baholash uchun kariyes intensivligini aniqlashda KPU indeksi, gigienik holatni baholashda Green–Vermillion indeksi, milk yallig'lanishini baholashda PMA indeksi, alveolyar suyak holatini baholashda Fuchs indeksi qo'llanildi; emal elektr o'tkazuvchanligi o'lchandi. Parodont va alveolyar suyak holatini baholash uchun ortopantomografik hamda rentgenodensitometrik tekshiruvlar

o'tkazildi. Ko'rsatkichlar $M \pm m$ tarzida ifodalanib, guruhlararo farqlar Student t-mezoni orqali baholandi ($p < 0,05$).

Natija va muhokama. O'smirlarning 81,52 foizida (75 nafar) abdominal semizlik, 26 foizida (24 nafar) arterial bosimning ko'tarilishi, 90,2 foizida (83 nafar) dislipidemiya va glyukoza miqdorining ortishi, 88 foizida (81 nafar) parodont to'qimalari zararlanishi qayd etildi. Kariyes jarayoni faolligi tahlilida bolalarning 56 foizida 1-daraja, 32 foizida 2-daraja va 12 foizida 3-daraja kariyes kuzatildi. Green-Vermillion indeksi nazorat guruhida $0,80 \pm 0,08$ ni tashkil etgan bo'lsa, asosiy guruhda $1,4 \pm 0,08$ gacha, metabolik sindromning yaqqol namoyon bo'lgan holatlarida esa $2,5 \pm 0,09$ gacha ko'tarilib, og'iz gigienasining qoniqarsiz darajasini ko'rsatdi. PMA indeksi nazorat guruhidagi $5,9 \pm 0,7$ foizga nisbatan asosiy guruhda $19 \pm 1,2$ va $37,1 \pm 4,2$ foizgacha oshib, yengil va o'rta darajadagi gingivit keng tarqalganini tasdiqladi.

Emal elektr o'tkazuvchanligi asosiy guruhda ortib ($0,99 \pm 0,02$ va $1,90 \pm 0,05$ mkA), emal minerallashuvining chuqur buzilishini ko'rsatdi ($p < 0,05$). Alveolyar suyak holatini aks ettiruvchi Fuchs indeksi nazoratdagi $1,00 \pm 0,04$ ball dan asosiy guruhda $0,89 \pm 0,03$ ballgacha, og'ir shakllarida esa $0,68 \pm 0,03$ ballgacha pasaydi. Ortopantomografik tahlilda sement-emal birikmasidan alveolyar suyak qirrasigacha bo'lgan masofa $1,72 \pm 0,08$ mm dan $2,64 \pm 0,11$ mm gacha ortdi, interdental to'siqlar balandligi $10,84 \pm 0,21$ mm dan $9,12 \pm 0,18$ mm gacha pasaydi, parodontal tirqish kengaydi. Densitometrik tekshiruvda alveolyar suyakning nisbiy zichligi $124,6 \pm 4,8$ shartli birlikdan $108,3 \pm 3,9$ gacha, og'ir holatlarda $96,8 \pm 3,4$ gacha kamaydi. Bu o'zgarishlar metabolik buzilishlar chuqurlashuvi bilan og'iz bo'shlig'i holatining izchil yomonlashishini tasdiqlaydi.

Xulosa. Metabolik sindromli o'smirlarda og'iz bo'shlig'i to'qimalarining klinik holati sezilarli darajada o'zgarib, kariyes intensivligining ortishi, milk yallig'lanishi va parodont to'qimalari zararlanishi yuqori chastotada uchraydi. Stomatologik indekslarning ishonchli o'zgarishi metabolik sindromli o'smirlarni stomatologik xavf guruhiga ajratish, profilaktik tadbirlarni erta boshlash va kompleks stomatologik nazoratni yo'lga qo'yish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mod  er T., Blomberg C., Wondimu B., Lindberg T.Y., Marcus C. Association between obesity and periodontal risk indicators in adolescents //

- International Journal of Pediatric Obesity. 2011;6(2-2):e264–e270.
<https://doi.org/10.3109/17477166.2010.495779>
2. Marro F., De Smedt S., Rajasekharan S., Martens L., Bottenberg P., Jacquet W. Associations between obesity, dental caries, erosive tooth wear and periodontal disease in adolescents: a case-control study // European Archives of Paediatric Dentistry. 2021;22(1):99–108. <https://doi.org/10.1007/s40368-020-00534-w>
 3. Pussinen P.J., Paju S., Viikari J. et al. Childhood oral infections associate with adulthood metabolic syndrome: a longitudinal cohort study // Journal of Dental Research. 2020;99(10):1165–1173. <https://doi.org/10.1177/0022034520929271>
 4. Li L.W., Wong H.M., Sun L., Wen Y.F., McGrath C.P. Anthropometric measurements and periodontal diseases in children and adolescents: a systematic review and meta-analysis // Advances in Nutrition. 2015;6(6):828–841. <https://doi.org/10.3945/an.115.010025>
 - Xoshimov B.L., Beknazarov B.B., Baxromova F.N. Metabolik sindromli o'smirlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatini tahlil qilish // Journal of Biomedicine and Practice. 2024. No. 2. B. 339–345.
 5. Xoshimov B.L., Beknazarov B.B. Metabolik sindromning o'smirlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati va parodont to'qimalariga ta'siri // Journal of Modern Medicine. 2026. No. 2(13).
 6. Beknazarov B.B., Usmonova Sh.R., Muxamedova N.H. va boshq. Parodont kasalligi va uning metabolik sindrom bilan bog'liqligi: batafsil sharh // Innovations in Science and Technologies. 2024. 1-jild, No. 7. B. 55–78.
 7. Saito T., Shimazaki Y. Semizlik va parodont kasalligi bilan bog'liq metabolik buzilishlar // Journal of Clinical Periodontology. 2005. 32-jild (6-ilova). B. 254–261.
 8. Zimmet P., Alberti K.G.M.M., Kaufman F. va boshq. Bolalar va o'smirlarda metabolik sindrom // The Lancet. 2007. 369-jild. B. 2059–2061.